



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxtarga olingan.

2022-yil. 5-son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulkumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinnbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyo't ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualiflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhazalarini bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.04. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharqli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturası. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ____ Adadi 2100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
XALQ TA'LIMI VАЗİRLİĞİNİNG
ILMIY-METODİK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE

**ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
TEACHING**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

научно-методический
журнал министерства
народного образования
республики узбекистан

LANGUAGE AND LITERATURE

**ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

- Baxtiyor DANIYAROV. Yozuv madaniyatiimiz tarixiga nazar 3
Muborak JURAYEVA . Nofilologik yo'nalişdagi bilim yurtlarida ikkinchi chet tilni o'qitish:
muammolar va yechimlar 5

TARJIMASHUNOSLIK

- To'lqin SAYDALIYEV. Abdulla Qodiriy falsafiy-axloqiy qarashlarining ruscha tarjimalardagi in'ikosi 7
TAHLIL

- G'olibjon NURALIYEV.Til birligida taqlid so'zlarning o'rni..... 10
Shoiraxon SHOKIROVA.Ota mehri chizgilarli 12
Iljos ISMOILOV. "Saddi Iskanدارи" dostonida me'rojining badiiy tasviri 14
Sitorabonus ATAULLAYEVA. Hikoyachilikda an'ana va mahorat 16
Ikram MAMBETOV. Traditional artistic forms in Karakalpak poetry 17

TISSHUNOSLIK

- Dilnoza NAMOZOVA. Phonetic interference in the speech of cadets studying English as a second foreign language..... 19
Sokhiba SAPAEVA. Realization of time metaphors and cultural implications 21

TADQIQOT

- Hamida ORTIQOVA. Maydon turlari va assotsiativ maydon xususida 24
Nozimaxon MAMADJANOVA.Interferentiv kompetensiyani shakllantirishda leksik interferensiyanı bartaraf etish yo'llari..... 26
Shahnoza ALIYEVA. Qisqartma so'zlar derivatsiyasi xususida 28
Ulug'bek YO'LDOSHEV. Nasriy tarjima kompetensiyasi qanday shakkantiriladi?..... 30
Dildora KAMBAROVA. Chet tilni o'qitishda internet veb-saytlari va dasturlardan foydalanshi 32
Navbahor MAMATALIYEGA. Ingliz va o'zbek tillaridagi vatan mazmunli aforizmlarning semantik maydoni 34
Nodira QURBONOVA.Ingliz tili "lingua franca" sifatida..... 35

KICHIK TADQIQOT

- Farida SAIDOVA. Sinonim leksemalar izohlaridagi ba'zi darajaviy ishoralar xususida..... 37
Sharifa NABIYEVA. Ortologik o'quv lug'atlari taraqqiyoti va muammolar 38
Orzigul ABLAKULOVA. Badiiy diskursning milliy o'ziga xosligi 41
Nazira YANGIBAYEVA. O'zbek tilshunosligining o'rganilishida "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining tutgan o'rni 42
Dildora SHARIROVA. Zoonim komponentini frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari..... 44
Parda QURBONOVA. Bayronning "Shilyon tutquni" poemasi tarjimasida vazn, ritm o'zgarishlari 45
Normat YO'LDOSHEV. Cho'lpox she'riyatida vaznlar transformasiyasida..... 47

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

- Шахноза ХОЛМАТОВА. Современный подход к изучению грамматики иностранного языка в профессионально-направленном обучении..... 49

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

- Феруза МАМАДАЛИЕВА. Актуальность семантического значения слова 51
Феруза КОДИРОВА. Лингвокультурологические особенности цвета в русских фразеологизмах 52
Маржан КАМБАРОВА. Лингвостатистический анализ номинацентрических пословиц казахского языка 53
Рамина ЯГАФАРОВА. Заемствования из узбекского языка в современном молодежном сленге 55
Сардор ЖАББОРОВ. Национально-культурные особенности гендерной лексики в русском и узбекском языках..... 58

МАСТЕРСТВО ПЕРЕВОДА

- Кодиржон НОСИРОВ. «Волчий нежности» и кое-что другое в классе 59
Майя ЭМ, Фазлидин ЯКУБОВ. Переводчество и переводческая наука..... 62

СЛОВАРИ

- Назира ДУСБАЕВА. Важность изучения региональных словарей английского языка..... 64

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

- Дмитрий ПОПОВ. О структурном влиянии русского языка на узбекский язык..... 66

- Бахтиёр ГАФУРОВ. Исследование рекламы медицинских услуг и лекарственных

- препаратов, предназначенных для мужчин или женщин 69

- Тимур НИЗАМУТИНОВ. Проблема художественного явления «сцена на сцене» в трагедии

- Уильяма Шекспира «Гамлет» 71

- Георгий ЖАКУПОВ. Морфонологические характеристики как проявление типологических

- различий фузиональных и агглютинирующих языков 74

- Бехруза АКМАЛОВА. Успешный PR в кризисных ситуациях: реальность или инсценировка? 76

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

- Халифа ПАЛУАНОВА. Различные методы обучения грамматике младших школьников 78

ing o'zidir deb o'yash xatodir, – deb yozadi shoir va olim Maqsud Shayxzoda.

Adib o'zining Furqat muvashshahlari munosabati bilan yozgan maqolasida, – "...muwashshahdagi ism bu g'azalning kimga bag'ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor esa bus-butun boshqa bir kishi bo'lishi mumkin. Masalan, Furqatning "Maqsudjon" ismiga bag'ishlangan g'azalida ... sevgili yor obrazida tasvirlangan kishi "Maqsudjon" emas, balki go'zal bir ayoldir" [6,92].

Furqat muvashshahlari haqida aytilgan bu mulo-hazalar boshqa ijodkorlar yaratgan muvashshahlarga ham taalluqli. Muqimiyning Jamolxon nomiga bag'ishlangan muvashshah-g'azalidan olingan quyidagi satrlar buni tasdiqlaydi:

*Jumlai Ho'qand mavzun qadlarini sarvari,
Dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari.
Mahv o'lib mardum xiromini ko'rub bozor aro,
Deydilar ba'zi "malak", ba'zi "bashar", ba'zi "pari"*

[2,20].

Oydek ravshanki, g'azalda ta'rif-tavsif qilingan dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari bo'lgan, ko'rganlar "malak"mikan, "bashar"mikan, yo "pari"mikan, deb mahliyo bo'lgan go'zal, albatta, Jamolxon ismli kishi emas, balki butunlay boshqa bir mahbuba, yordir.

"Lekin Kamiy muvashshahlari misolida bu qonuniyatga zid holatni ham ko'rish mumkin, – deb yozadi adabi-yotshunos O.To'laboyev toshkentlik shoir Kamiy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida [4,87]. – Mana shunday muvashshahlardan biri "Abdulazizxon" nomiga yozilgan. Xo'sh, Abdulazizxon kim? Adabi-yotshunosligimizda u haqdagi dastlabki ma'lumotni professor G'.Karimovning "Muqimiyl" monografiyasidan olamiz: "Abdulazizxon Eski jo'va tomonidan, O'zgand mahallalik. Abdulazizxon erkin fikrli, ma'rifatparvar va san'at-adabiyyotga havaskor shaxslardan edi. U shoir, olim va san'atkorlarga mod-diy yordamda bo'lgan. Uning uyi ilg'or intilishlarga ega

bo'lgan Toshkent shoirlarining adabiy gurung markazi-ga aylangan. Muqimiyning u kishi haqida "Xon akam" sarlavhali she'r yozgani ma'lum". Shoir Furqat esa o'zining Istanbuldan turib yozgan mashhur "Sabog'a xitob" she'riy maktubida Abdulazizxon nomini o'zining yaqin do'stlari qatorida tilga oladi. Adabi-yotshunos olim Sh.Yusupov bu kishining to'la ismi sharifi Abdulazizxon Boboxon o'g'li ekanini aytadi va "o'zi uchrashgan, ham-suhbat bo'lgan ajoyib zotlar" haqida bir emas, to'rtta kitob tasnif etgani haqida ma'lumot beradi.

O'zidan 10-11 yosh katta bo'lgan bir zamondoshini "saodat maob", "janobi olyi", "sayyidim" deb atashi shoirning Abdulazizxon shaxsiga hurmat-u ixlosini anglatadi:

*Abdulazizxon saodat maobgo,
Ma'zuri ojizona yetur bandin, ey sabo.
Boshingni ostoniga qo'y avvalo borub,
Yuz-u ko'zing surub daru devor-u qasrig'o...
Yorab, Kamiy qulingni duosin ijobat et,
Ui sayyidim haqina ba e'zozi Mustaf'o .*

Noma tarzida yozilgan ushbu muvashshahdan ko'ri-nadiki, undagi barcha ta'rif-u tafsiflar Abdulazizxonga tegishli. Muvashshah esa, yuqorida aytganimizdek, shu shaxs nomiga yozilgan. Demak, ma'lum bo'ladiki, ba'zan muvashshahdagi vast o'sha muvashshah kimning nomiga yozilgan bo'lsa, shu nom egasiga tegishli bo'lishi ham mumkin ekan" [4,87-88].

"Odatda muvashshah faqat tirik do'stning ismiga bog'langan. Shuning uchun ham ismiga muvashshah bog'langan kishilarni aniqlash va shu orqali shoirning yor-u do'stlari, muhiti va doirasi haqida konkret material qo'iga kiritish, shoirning ilmiy biografiyasini yaratish uchun muhimdir" [6,93].

Shunday ekan, muvashshahlar tadqiqi shoirlarning adabiy davrsasi, ijodiy hamkorligi, shuningdek, bu davr ijtimoiy va adabiy hayoti kabi ko'plab masalalarga oy-dinlik kiritishi jihatidan ahamiyatlidir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Pardayev Q. Muqimiyl she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini. – Toshkent, "Muharrir", 2019.
2. Pardayev Q. Biz bilmagan Muqimiyl. Yangi aniqlangan va matni qayta tiklangan asarlar. – Toshkent, "Muharrir", 2019.
3. Qayumov A. She'riyat jilolari. – Toshkent, "O'qituvchi", 1997.
4. To'laboyev O. Karimbek Kamiy – milliy uyg'onish shoiri. – Toshkent, "Muharrir", 2018.
5. Yusupov Sh. Tarix va adab bo'stoni. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2003.
6. Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinch tom. – Toshkent, Adabi-yot va san'at, 1973.

Mohigul MAVLONOVA,
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasи o'qituvchisi*

"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDA SHOPUR OBRAZI TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqola Alisher Navoiy qalamiga mansub "Farhod va Shirin" dostonidagi muhim ijobjiy yordamchi qahramonlardan biri, do'stlik va odamiylikning go'zal timsoli

Annotation. This article is devoted to a comparative analysis of the image of Shopur, one of the most important positive characters in the epic "Farkhad and Shirin" by Alisher Navoi, who is a

hisoblangan Shopur obrazining qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: qiyosiy tahlil, obraz, doston, Shopur, Farhod, Shirin, Xusrav, "Xamsa", do'stlik, sadoqat, insoniylik, ilmiy qarashlar.

wonderful symbol of friendship and humanity.

Keywords: comparative analysis, image, epic, Shopur, Farhod, Shirin, Khusrav, "Khamsa", friendship, loyalty, humanity, scientific views, language of the work.

Ma'lumki, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning muazzam "Xamsa" asari nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotining eng yorqin badiiyat gultojisidir. Ayniqsa, "Farhod va Shirin" dostoni "Xamsa" tarkibidagi g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta, pishiq, qolaversa, obrazlar olamining o'ziga xosligi bilan ham e'tiborga molik so'z durdonasi, desak aslo xato bo'lmaydi. Dostondagi har bir qahramon o'zining muayyan poetik vazifasiga ega. Garchi asarda bosh o'rinni egallab, shoirning g'oyaviy-badiiy maqsadini yoritib berishga xizmat qiluvchi timsol Farhod bo'lsa-da, Shirin, Mehinbonu obrazlari ham bu qatorдан chetda qoldirib bo'lmaydi. Garchi Shirin obrazi dostonning ikkinchi yarmida ko'zga tashlansa ham.

Shuningdek, dostoniga asosiy maqsad – bosh g'oyani ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator yorqin yordamchi obrazlar ham kiritilgan. Jumladan, Shopur obrazini olaylik. Dostonda Shopur sof, samimi, beg'araaz do'stlik timsoli sifatida gavdalan-tirilgan. Mazkur maqolada biz ana shu – Shopur obrazi haqida to'xtalamiz.

Alisher Navoiy o'z qahramonlarini xoh ijobji, xoh salbiy bo'lsin, me'yor ko'rsatkichining eng yuqori darajasi bilan tasvirlaydi. Adabiyotshunos T.Ahmedovning "G'oyaviy niyat va ijobji obraz" nomli maqolasida keltirilishicha, "Navoiy odamlarni odamlarga, el-yurtga qilgan yaxshiligi, keltirgan manfaati yoki zararidan kelib chiqib, yaxshi va yomonga bo'ladi. Uning asarlarida yaxshilar, deyarli nuqsonisz, yomonlar esa o'ta ayanchli holda tasvirlanadi. U dostonlarida ana shu prinsipi sodiq qolgan holda ijobji va salbiy obrazlarni yaratadi. Navoiy ko'pincha ijobji obrazlarni katta va kichikligidan qat'i nazar, bo'rttirib berishga harakat qiladi".

Professor A.Hayitmetov ham Alisher Navoiy asarlaridagi qahramonlar haqida shunday yozadi: "...Alisher Navoiyning bunda tutgan asosiy prinsipi ideallashtirishdir".

Kuzatishlarimizga ko'ra, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin"dagi yordamchi obraz – Shopurga nisbatan ham xuddi shunday munosabatda bo'lgan. Shopur kabi yoradamchi obrazlardagi deyarli hamma yaxshi fazilatlar Alisher Navoiyning xohishi bilan, ijodiy fantaziyasi bilan yaratilgan.

Shopur – dostonning bosh g'oyasini, Farhod obrazini, uning harakatlarini to'laqonli yoritib berishda xizmat qiladigan muhim badiiy obrazdir. Navoiy bu obraz zimmasiga turli millat vakillarining bir g'oya asosida birlashi, do'stlik, chin insoniylik masalasini hamda asar voqealarini rivojlantirishda yordam berish vazifasini yuk-

laydi. Shopur samimy, kamtarin inson, shu bilan birga mohir rassom va sayyomdir. Ayonki, ulug' shoir Alisher Navoiy ham umri davomida san'at va hunar ahillarini e'zozlab, o'limas asarlarida ularni yuksak e'tirof bilan tilga olgan.

Akademik Oybek o'zining "Farhod va Shirin" dostoni haqidagi maqolasida bu xususda quydagilarni yozgandi: "Navoiy o'z asarlarida hunar va san'at odamlarini chuqr sevgi bilan va juda go'zal samimiy ravishda tasvirlaydi. Shopur savdogar va samimiy do'st, yuksak qalibli shaxsgina emas, u mashhur naqqosh, rassomadir".

Farhod va Shopur o'tasidagi do'stlik Farhodning svodoglar kemasini dengiz qaroqchilaridan mardonavor himoya qilganidan so'ng boshlanadi. Kutilmagan, ziddiyatlari holatda tanishib qolgan bu ikki qahramon sekin-asta do'stlasha boradi. Farhod bilan suhbatlashgan Shopur uning xatti-harakatlaridan, ma'naviy boy qiyofasidan oddiy inson emasligini, qalbida og'ir bir jarohat yashiringanini payqaydi. Lekin Farhod qalbidagi o'tli muhabbat sirini uncha-munchaga ochavermaydi. Professor A.Qayumov "Farhod va Shirin sirlari" nomli monografiyasida Shopur haqida to'xtalib, mana bunday deydi: "Shopur Farhodni ancha kuzatib, Farhodning qilgan ishlari, yurish-turishiga hayron qoladi. Shopur Farhod bilan suhbatda bo'lganida ishq o'tidan qancha ko'p shikoyat qilsa, Farhod shuncha diqqat bilan tinglar edi. Buni tushungan Shopur ham "der erdi ishqdin o'tlug' fasona". So'ngra Shopur donoligi va tadbirkorligi bilan Farhodning siridan xabardor bo'ladi hamda unga astoydil yordam berishga kirishadi. Bu yo'lda o'z manfaatidan ham, hatto shaxsiy istaklaridan ham voz kechib, Farhod tashvishi bilan yashaydi. Unga ko'mak berish yo'llarini izlaydi.

Alisher Navoiy Shopur obrazida oljanob insonlar o'zlarining do'stligi uchun tashvish va azoblarga qolib bo'lsa ham, qo'llaridan kelgancha yordam berishga hammavaqt tayyor ekanliklarini ko'rsatgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aziz Qayumov bu do'stlik va sadoqatning Navoiy hayotidagi o'rnini quydagicha izohlaydi: "Bunday do'stona birdamlik tuyg'ulari Navoiyning o'ziga yaxshi tanish edi. Jomiy, Sayyid Hasan Ardashev, Muhammad Pahlavon kabi sadoqatli do'stlarga ega bo'lgan Alisher Navoiy Farhod bilan Shopurning do'sligini kuylaganda ana shu zotlardan ilhom olgani tabiidir", – deydi¹⁵.

Alisher Navoiy dostonidagi bu ikki qahramon o'tasidagi do'stlik rishtalarini bog'lash jarayonida xalq og'zaki ijodiga ham murojaat qilgan, albatta. Chunki Shopur o'z mohiyati nuqtayi nazaridan "Alpomish" eposidagi

Qorajon, "Gul va Navro'z" masnaviyisidagi Bulbullarni eslatadi⁶. Shopur Farhod izlagan yurt Arman mamlakati, u ko'rib hushidan ketgan go'zal qiz esa Arman malikasi – Shirin ekanini, bu yo'lda unga yordam berishini aytadi. U Farhodni Armanistonga olib boradi, har doim yonida bo'lib, o'zining beg'araz maslahatlari bilan ya-qindan yordam beradi, o'z xizmatini ayamaydi. Uning quvonchini ko'rib xursand bo'ladi, g'am-tashvishidan azob chekadi. Navoiy Shirinni ko'rib hushidan ketgan Farhodga chin yurakdan achinib samimiyl iltifot ko'rsatgan Shopurni quyidagicha tasvirlaydi:

Chu ul sham'i vafoda qolmadi nur,
Yetib parvonadek boshig'a Shopur.
Boshin qo'ynig'a oldi yig'labon zor,
Ki ey yo'q qismating juz ranj-u ozor!
Bas ermas erdi g'urbat dard-u dog'i,
Ki o'chti bejihat umrung charog'i.
Vafo yo'lida ul manzilg'a yetding,
Ki bir ko'rma bila jon tarkin etting...
Chekib ranjing manga g'am bo'ldi podosh,
Ki hargiz ko'rmagay erdim seni kosh.

Buyuk mutafakkir shoir Shopur obrazni orqali haqiqiy do'stlikning mazmun-mohiyatini, do'stning orzu-istagini o'z manfaatidan ham ustun qo'yadigan, o'ziga ravo ko'rmangan narsani do'stiga ham ravo ko'rmaydigan shaxs timsolini ko'rsatib beradi. Shopur Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy asarlarida ham bosh qahramon Xusravning eng yaqin do'sti sifatida namoyon bo'ladi, uni qo'llab-quvvatlaydi, unga sidqidildan yordam beradi. Biroq u professor S.Erkinovning tadqiqiga ko'ra, mazkur dostonlarda Shopur "saroydag'i xushomadgo'y maslahatchilarga xos birmuncha salbiy sifatlarga ega

edi"⁷. Navoiyning Shopuri esa chin ma'nodagi sadoqatli va olihimmat inson, Hamid Olimjon ta'biri bilan aytganda do'stlikning "billur" timsolidir.

Navoiy Shopur obrazini bunday yuksak fazilatlar egasi qilib tasvirlashining bir nechta sababları bor. Ma'lumki, shoir dostonligi Farhod obrazini yetuk va komil inson sifatida tasvirlaydi. Uning butun o'y-xayoli el-yurtga xizmat qilish, zulm va adolatsizlikning ildizini quritish bilan band edi. Yana bir sababi, Shopurday ezgu fazilatlar egasi bo'lgan bir inson Xusrav kabi butun vujudi bilan yovuzlikning makoniga aylangan johil kimsa atrofida bo'lislini shoir istamaydi. Shopur Farhod va Shirin o'tasidagi insoniy muhabbatni hurmat qiladi, e'zozlaydi. Ularning o'z sevgilariga erishib baxtli bo'lishlarini xohlaydi, chin ko'ngildan ularga xizmat qiladi. Shopur qalbida do'stga sadoqat tushunchasi shu qadar buyuk ediki, hatto Farhod vafotidan keyin ham o'z yurtiga qaytib ketmadi. Farhod qabri ustida jorub-kash sifatida xizmat qilib qoldi. Ya'ni "*Shopurning asl maqsadi Farhod va Shirinni o'z maqsadiga yetishtirish orgali ular mansub bo'lgan xalqlarni ham birlashtirish, shu orqali xalqlar o'tasidagi o'zaro do'stlikni mustahkamlashdan iborat edi*". Asarda Shopur istagi orgali olg'a surilgan g'oya Alisher Navoiyning eng ulug' orzularidan bira bo'lib, u bu obrazni yaratishdan shaxslar o'tasidagi do'stlik, hamjihatlikni kuchaytirishnigina ko'zda tutmaydi, balki xalqlar o'tasidagi do'stlikni mustahkamlashni ham o'ylagan edi"⁸.

Darhaqiqat, ulug' shoir Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida qalamga olgan do'stlik mavzusi o'zbek mumtoz adabiyotidagina emas, ijtimoiy-madaniy turmush sharoitida ham do'stlikning go'zal namuna-si bo'lib qoldi. Aniqrog'i, Farhod va Shopur o'tasidagi do'stlik "umumbashariy do'stlik darajasiga ko'tarildi"⁹.

1. Навоий ва ижод сабоқлари. Тошкент "Фан" нашриёти, 1981., 37-бет.
2. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. Тошкент, 1963., 91-бет.
3. Ойбек. Асарлар, 13-том, Тошкент "Фан" нашриёти, 1979., 84-бет.
4. А.Қаюмов. "Фарҳод ва Ширин сирлари". Тошкент, F. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979., 90-бет.
5. O'sha manba.
6. С. Эркинов. Навоий "Фарҳод ва Ширин"и ва унинг қиёсий таҳлили. Тошкент, 1971., 154-бет.
7. С. Эркинов. Навоий "Фарҳод ва Ширин"и ва унинг қиёсий таҳлили. Тошкент, 1971., 159-бет.
8. Навоий ва ижод сабоқлари. Тошкент "Фан"нашриёти, 1981., 40-бет.
9. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. Тошкент, 1963., 99-бет.

Mohira HAYITOVA,
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika instituti magistranti*

SAMIMIYATNING TERAN BADIY IFODASI

Annotasiya: maqolada Abdulla Oripov she'riyati, shoir ulg'aygan mikon ham uning tuyg'ularini kamol toptirishga, uning she'riyatga bo'lgan mun-

Annotation: The poetry of Abdulla Oripov, the place where the poet grew up, also contributed to the development of his feelings and the

Аннотация: Поэзия Абдуллы Орипова, место, где вырос поэт, также способствовала развитию его чувств и формированию отношения к